

Ona yurtning - oltin beshiging

TONG yulduzi

N: 46
(66483)

2004 yil
15 noyabr - 21 noyabr

Gazeta 1929 yil
1 avgustdan chiqq
boshlagan

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.

SHIRIN HAYOTIMIZ KUSHANDASI

Maktabimizda o'tkazilgan «Og'usiz kelajak sari» deb nomlangan tadbirni asosan o'zimiz tayyorladik.

Giyohvandlik, ichkilikbozlik deganda hammamizning yuzimiz o'zgarib ketadi-a? Ana shu tashvishli, achinarli hol sahna asarlarimizda aks etdi. Afsuski, yoshlarimizning ayrimlari ana shu illatlardan holi emas. Axir giyohvandligu ichkilikbozlik nafaqat yosh vujudning, balki shirin umrimizning ham kushandasi-ku.

Aziz tengdoshlar! Insonga hayot bir marotaba berilar ekan, bunday illatlardan yiroqda yashaylik! Buning uchun o'zaro oramizda qoladigan sirlarimizni tezroq aytib, hech bo'lmasa sahna ko'rinishlari orqali izhor etib, undan qutulishning chora tadbirlarini qilaylik. Inson bo'lib dunyoga kelibmizmi, chin INSON bo'lib yashaylik. YAXSHILARU YAXSHILIKLARga hamroh bo'laylik!



Umida NIYOZOVA,
Termiz tumanidagi,
11-o'rta maktabning 9-sinf o'quvchisi.

ORZULAR

Ko'ksimda bir gutxan bor,
Vonadi, tovullaydi.
Yuragimning tubida,
Orzular shovullaydi.

Ajib orzularim bor,
Atirgul kabi so'im.
O'tinchim bor: hech qachon,
So'lib qolmasin gulim.

Men orzuning qiziman,
Deyman, baxtim yor bo'lsin.
Odamni odam qilgan,
Orzularim bor bo'lsin!

Go'zal BAXTIYOR qizi,
Samarqand viloyati,
Kattaqo'rg'on shahridagi
Pedagogika kolleji talabasi.



Biz ko'pincha dugonalar qalin do'stlar haqida gaplashamiz. Dugonalarimizga ishonib sirlarimizni, hammaga oshkor ayta olmaydigan gaplarimizni gapiramiz. Maktab davridagi qiziq voqealar insonning yuragida bir umr muhrlanib qoladi. Keyinchalik sinfdoshlar yig'ilganlarida o'sha voqealarni kula-kula eslashadi. Bizning sinfimizda ham ikki dugona bor. Ularga hammaning havasi keladi. Bu ikki ajralmas dugonaning qanday qilib do'stlashib

BIROVNING OYOQ KIYIMI

qolgani juda qiziq bo'lgan ekan. Keling, men buni sizlarga so'zlab beray.

Bir kuni Zulfiya jismoniy tarbiya fanidan kiyadigan krossovkasini uyida qoldirib keladi. Usto'zidan cho'chigani uchun darsga tuflida chiqadi. Lekin bir aylanib yugurib kelguncha tuflida oyoqlari qiynalib ketadi. Dars oxirlab qolay deganda, tuflisining poshnasi tushib

qoladi. Zulfiya nima qilarini bilmay, yig'lab yuboradi. Buni ko'rgan Nodira unga krossovkasini yechib beradi. Zulfiya Nodirani krossovkasida uyigacha yetib oladi va unga omonatini qaytarib berarkan, kel, dugona bo'lamiz, shu vaqtgacha sendaka mehribon sinfdoshni uchratmagan edim, deydi. Aslida-ku, birovning oyoq kiyimini kiyish gigiyenaga to'g'ri kelmaydi. Lekin, shu bahona ikkalasi qalin dugona bo'lib qolishadi.

Kamola ERGASH qizi,
Toshkent viloyati, A.To'laganov nomli maktabning 10 -sinf o'quvchisi.



SOVG'AMI, G'OVG'AM?

Darsdan so'ng bo'lgan yig'ilishda 6-sinf o'quvchilarining hammasi qatnashdi. Sababi, bir necha kundan so'ng sinf rahbari Xadicha opaning tug'ilgan kuniga nima sovg'a qilish kerakligi haqida bir to'xtamga kelib olish kerak edi.

O'quvchilardan biri: -Namunali xulq, a'lo o'qish va jamoat ishlaridagi faollik ham yaxshi sovg'a bo'la oladi, desa, yana biri:

-Gullar bilan tabriklab qo'ya qolsak-chi?- deb taklif kiritardi.

Nihoyat, ikki-uch dugona shirinlik tayyorlaydigan bo'ldi. Hamon bir chetda jim turgan Eshmat baqaloqning esa xayolidan uy to'ridagi chiroyli javondagi kitoblari qatlami bir-bir o'ta boshladi. Uning otasi Mirqodir aka tadbirkor, o'z kasbining ustasi.

Bayramga sanoqli kunlar qolganda



Eshmat baqaloq dadasining kitob javonidagi gunafsha rangli kitobni oldi. Ehtiyotkorlik bilan uni qog'oz xaltaga joyladi. Ertasiga maktabga yo'l olar ekan, ko'nglidagi yop-yorug'likdan zavqlanardi. Nihoyat, Xadicha opaga sovg'ani berdi. Usto'z o'quvchilari oldida xursandligidan Eshmatni alqay-alqay sovg'ani ocha boshladi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, qo'lida oldi-soldi shartnomasi kitobi turardi. Xadicha opaning quvonchi bir zumda tarqadi. Eshmat baqaloqning kitob mutolaa qilmasligi aniq bo'lib qolgandi.


Abdulla SAIDOV,
Jizzax viloyati,
G'allaorol tumanidagi
78- o'rta maktab o'qituvchisi.

ERTAGA NIMA BO'LADI?

Yer yuzida suv bor ekan, demak hayot bor, tabiat go'zalligi barqarordir. Bizning uyimiz Akmal Ikromov tumanidagi «Izza» mahallasida joylashgan. Bobomning aytishlaricha, qadimda bu yerlardan suvlari to'lib-toshib oquvchi katta anhor o'tar ekan. Ko'm-ko'k maysalar tarovati, sayroqi qushlarning ovozidan barcha birdek bahramand bo'larkan. Keyinchalik anhor o'pirilib, jarlik hosil bo'lgan va chor atrof qaraysiz ahvolda qolgan.

Men har kum o'qishga yo'l olar ekanman, ariq bo'yidagi

axlat uyumlari va chiqindilarni ko'rib, achinib ketaman. Turli xonadonlardan chiqqan chiqindilar sabab, yon-atrof botqoqlikka aylangan. Bugun biz o'zimiz yashab turgan zaminni, tabiatni asray olmayapmiz. Ariqlarni turli chiqindilar bilan to'ldirib, suv yo'llarini to'sayapmiz. Bu holda, ertaga nima bo'ladi?



Nasiba MUTALOVA,
S.Rahimov nomli Akademik litseyning 207-guruh talabasi.

SEYIMLI NASHRIMIZ

Biz Andijon viloyati, Izboskan tumanidagi 30-o'rtta maktabning bilimiga chanqoq 8-«A» sinf o'quvchilarimiz. Maktabimiz o'quvchilari gazetalarni mutolaa qilishni yaxshi ko'rishadi. Gazetalar orasida eng sevgan nashrimiz «Tong yulduzi»dir. Ayniqsa, gazeta sahifalaridagi «Tanishuv», «Maktabdagi muhabbat», «Qulog'ingga gapim bor», «Kunlardan bir kun», «Yoshlar nigohi» ruknlari bizga yoqadi. Yana bir jihati - gazetaning rang-barangligi, uning go'zal dizayni bizni qoniqtirmoqda.

Istardikki, «Tong yulduzi»ning umri uzoq bo'lsin!

Xatni yetkazuvchi
Dilnavoz O'RINBOYEVA,
jamoatchi muxbir.

*Sahifangda mujassam,
Maqola, she'r, hikoya.
O'qib, hech zerikmaymiz,
Tug'ilar yangi g'oya.*

Barcha maktablarda qadrdon gazetamiz «Tong yulduzi»ga obuna jarayoni qizg'in olib borilmoqda. Bu borada bizning Akmal Ikromov

YULDUZLAR
SARASI

tumanidagi 106-o'rtta maktabning 5-sinfidan to 11-sinfigacha bo'lgan o'quvchilarning 80 foizi turli nashrlarga obuna bo'lishdi. Ular orasida eng ko'p obunachilar «Tong yulduzi» gazetasiga edi. Bu borada bizning 9-sinf o'quvchilari ilg'orlardan hisoblanadi. Sinfidoshlarim «Tong yulduzi»ning har bir sonini qizg'in bahs-munozaralar bilan muhokama qilishadi. Dunyo xabarlaridan xabardor etib, sport olamiga sayohat qildiradigan «Tong yulduzi»ning o'zim ham ashaddiy muxlisiman. Badiiy adabiyotga, ayniqsa, she'riyatga qiziqaman, uncha-buncha she'rlar ham yozib turaman. Yulduzlar sarasi bo'lmish «Tong yulduzi»m, sahifangda mening ham she'rlarim chop etilsa, boshim osmonlarga yetardi.

MENING DADAJONIM

*Dadajonim, mehri bordir,
Quyosh nuri sizga yordir.
Aqlli qiz bo'lg'in doim,
Deysiz meni, «ko'kda oyim»*

*Gar kulsangiz, olam kular,
So'zlaringiz malham bo'lar.
Fer to'kasiz erta-yu kech,
Bizlar uchun horimay hech.*

*Quloq tutib so'zingizga,
Ergashaman, o'zingizga.
Aqlli qiz bo'lsam doim,
Dertlar meni ko'kda oyim.*

Nozima MUXIDDINOVA,
A.Ikromov tumanidagi 106-o'rtta maktabning 9-«V» sinf o'quvchisi.

«Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'lim va tarbiyasini olgan o'quvchilar kerak», deb yurtboshimiz haq gapni aytganlar.

*Ilm, hunar o'rgan, ularda ko'p sir,
Yopiq eshik ochilar bir-bir... degan donolar.* Lekin, avvalo uqish bilan o'qishning, yozish bilan yozishning farqi bor. Axir nomiga shunchaki o'qish, yozish bo'lsa, bundan hech qanday naf bo'lmaydi-ku. Yana o'qiganing, yozganing mohiyatini anglamasang,

HAR SINFGA 10 DONA «TONG YULDUZI»!

bundan ham foyda yo'q. Bordi-yu yozganing ham, o'qiganing ham samara bermasa, oqibatda faqat zarar kelishi muqarrar.

O'quvchi 9-sinfni bitirib, mustaqil hayotga qadam qo'yish arafasida. Endigina qo'yiladigan qadam ko'p jihatdan maktabda olingan bilim, biror kasb bo'yicha egallangan dastlabki ilmni qanchalik puxtaligiga bog'liqdir. Ammo, so'nggi qo'ng'iroq jaranggi qaysidir o'quvchi qalbiga boshi berk ko'chaga kirib qolg'anlik tuyg'usini solgani ham sir emas. Buning sababi: yangi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini ishga tushirish bo'yicha yo'l qo'yilgan kamchiliklardandir. Yoki, umumta'lim maktablarida o'quvchilar o'rni yetarlicha qisqartirilmaganligidandir. Ayrim 9-sinf bitiruvchilarining o'qishni akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda yoki umumta'lim maktablari 10-sinflarida davom ettirish imkoniyatlarining cheklanish holatlaridan desa ham bo'ladi. Yuzaga kelgan muammoni bartaraf etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga izchil o'tishni ta'minlashga doir qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida» gi 473-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida maktabimizda bir



o'qituvchilar hamon uchrab turishibdi. Shu bois farzandlarining qiziqib tanlagan kasblarini chuqurroq o'rganishiga sharoit yaratishdan ko'ra ma'lum yo'nalishdagina o'qitishga undovchilar bor. Holbuki, bola iqtidori va qiziqishini e'tiborga olmaslik uning qobiliyatini so'ndiradi. Natijada, o'quvchi majburan berilgan bilimni ham to'liq egallay olmay qiynaladi. Bitirgandan so'ng ham jamiyatda o'z o'rnini topolmay qoladi. Bunday

qator ishlar amalga oshirildi.

2003-04 o'quv yilida maktabimizda 9-sinfni jami 137 nafar o'quvchi tamomladi.

Shundan 7 nafari «A'lo darajali» guvohnomaga loyiq topildi. Jumladan, 93 nafar o'quvchi kasb-hunar kollejlarda, 31 nafar o'quvchilar akademik litseylarda, 13 nafar o'quvchi umumiy o'rta ta'lim akademik litseylarda, 13 nafar o'quvchilar

muammolarga duch kelmasliklari uchun maktab rahbarimiz **Z.N.Xolmuhammedov** hamda

Ustozga so'z

o'qituvchilarimizdan **Z.Fayzixo'jayeva, R.Mirzoitboyeva, S.Zufarova, V.Abdullayevalarning** o'z vaqtida ota-onalar bilan olib borgan doimiy muloqoti samarali ish berdi, deb o'ylaymiz.


Bolalar bizning kelajagimiz. Ularga nisbatan e'tibor va g'amxo'rlik ertangi kunga bo'lgan munosabatimizni belgilaydi. Shunday ekan, maktab bitiruvchilarimizning kasb-hunar tanlashiga e'tiborliroq bo'laylik! Yana bir gap, bola ongini oshirishda matbuot bilan muntazam muloqotda bo'lib turish foydadan holi emas. Bir paytlar maktab direktoridan tortib, sinf yetakchisigacha obuna



yuqori sinflarda o'qishni davom ettirmoqdalar. O'tgan o'quv yili boshidan 9-sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari hamkorlikda maktab psixologi bilan faol ish olib borishdi. Bitiruvchi o'quvchilarning ota-onalari bilan doimiy muloqot o'rnatildi. O'qituvchilar ota-onalar bilan hamkorlikda kasb-hunar kollejlari, akademik litseylarga tashrif buyurishdi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, haligacha ko'pchilik ota-onalar kadrlar tayyorlash milliy dasturining ma'no-mohiyatini u qadar anglab yetmaganlar. Misol uchun Yangi turdagi kasb-hunar kollejlari sobiq ittifoq davridagi SPTUlardan farqlay olmayotgan ota-onalar, shu fikrdagi

uchun qattiq ter to'kardi. Majburan bolalarni o'z gazeta va jurnallariga obuna qilish ishlari avj olardi. Endi unday emas. Ammo bu masalaga jiddiy yondoshmasak, bola o'z nashrini vaqtida o'qishdan mahrum bo'ladi. Shuning uchun biz maktabimizda bu boraga e'tibor bilan qaraymiz. Bu yil har bir sinfga o'ntadan «Tong yulduzi» shiori ostida harakat qilyapmiz. Albatta o'quvchilar yangi yilda o'z gazetalarining chinakam muxlisiga aylanadilar.

Chilonzor tumanidagi 179- maktab direktori Z. N.Xolmuhammedov, muovini S.J.Nosirova, o'qituvchi S.X.Zufarova.

ENG YAXSHI
BAYRAM

Kuni kecha bizning Sobir Rahimov tumanidagi So'fizoda nomli 165-maktabda oltin kuzimizning eng yaxshi bayramlaridan biri - Hosil bayrami bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirga ustozlarimiz **Nargiza Boymurodova, Gulnora Ubaydullayeva** hamda sinf rahbarimiz **Lobar Rahmatullayevalar** boshchiligida qizg'in tayyorgarlik ko'rdik. Belgilangan shartlar bo'yicha 6-«D» sinfining «Anor» va 6-«G» sinfimizning «Paxtaoy» komandalari sahnada o'zaro bellashdilar. O'quvchilarimiz «Sholg'om» hamda «Bug'doy bobo» ertagining sahna ko'rinishlarini, turli she'r va ashulalarni maromiga yetkazib ijro etdilar. Kuz dasturxoniga to'kiluvchi turli-tuman mevalar, ta'mi tilni yorar poliz mahsulotlaridan iborat jonli ko'rinishlarimiz Hosil bayramimiz ko'rkiga ko'rk qo'shdi. Shuningdek, 9-sinfda tahsil olayotgan aka va opalarimiz ham she'r, qo'shiqlari bilan bu tadbirga faol ishtirok etishdi. Ushbu bayram barcha qatnashchilar va mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

Mohinur HAYDAROVA, oquvchi.

Dasturi va Nizomida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda yordam berish;

- tashkilot faoliyatida faol ishtirok etgan bir guruh a'zolarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, ta'lim muassasasi yoshlarning tegishli muammolarini hal qilish hamda ularning manfaatlarini himoya qilish;
- boshlang'ich tashkilotlar ish faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari belgilash;
- boshlang'ich tashkilotlar yetakchisining o'zaro tajriba almashishi, o'quvchilar o'rtasida o'tkaziladigan tadbirlar samaradorligini va ta'sirchanligini oshirish yuzasidan seminar-treninglar o'tkazish;
- bolalarda tashabbuskorlik, tadbirkorlik va ishbiarmonlik ko'nikmalarini hosil qilish borasida qo'llab-quvvatlash.

2.2. Ta'lim muassasalarining huquqlari:

Ta'lim muassasalari quyidagi huquqlarga ega:

16

1.6. Boshlang'ich tashkilot Kengashining qarorlarini bajarish tashkilot tarkibiga kirgan a'zolar uchun majburiydir.

2. Ta'lim muassasalarining vazifalari va huquqlari

2.1. Ta'lim muassasalarining vazifalari:

«Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati boshlang'ich tashkilotining faoliyat yuritish uchun xona ajratish, jihozlash va boshqa zaruriy shart-sharoitlar yaratish;

- o'quvchi yoshlarning manfaatlarini himoya qilish, ular huquqlarini amalga oshirish masalalari bo'yicha buyruqlarni chiqarishda boshlang'ich tashkilot Kengashi taklifini inobatga olish;

- boshlang'ich tashkilot faoliyati bilan bog'liq bo'lgan masalalarni ko'rib chiqishda, uning rahbar vakillari ishtirokini ta'minlash;

«Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati

15

uslubiy va amaliy yordam olish, malakasini muntazam ravishda oshirib borish;

«Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati va «Kamalok» bolalar boshlang'ich tashkilotlari ishlarini rejalashtirish va ularning bajarilishini ta'minlashdan iborat.

3. Bolalar yetakchisining huquqlari

Umumta'lim muassasalari bolalar yetakchilari quyidagi huquqlarga ega:

- barcha turdagi ta'lim muassasalarida bolalar jamoalari bilan ish olib borish va ularga o'z vakolati doirasida rahbarlik qilish;

- guruhlar, birlashmalar va kengashlar faoliyatida bolalar va o'smirlar, o'quvchilar bilan bog'liq bo'lgan tarbiyaviy masalalarni maktab Pedagogika va harakat faollari kengashlari muhokamasiga kiritish;

8

vazifalarini unumli tashkil etish, to'garak, klublar, o'quv kurslari ishini tashkil etishda faollik ko'rsatish va doimiy nazorat qilish;

«Zulfiya», «O'zbekiston belgisi» ko'krak nishoni kabi davlat mukofotlariga nomzodlarni tanlash komissiyalari ishida faol ishtirok etish;

- kam ta'minlangan, nogiron va ota-onasiz o'quvchilarni ijtimoiy jihatdan himoyalash, ta'lim olishlari uchun yaratilgan sharoitlar ahvolini muntazam o'rganib borish va mavjud kamchilik va muammolar yuzasidan ta'lim muassasasi rahbariyatiga takliflar kiritish.

4. Boshlang'ich tashkilotning huquqiy maqomi

Boshlang'ich tashkilot ta'lim muassasasidagi o'g'ak, g'aziladigan yig'ilishlarda ishtirok etib, yoshlar manfaatiga tegishli masalalar muhokamasida ishtirok etadi va yoshlar nomidan ovoz beradi;

22

- oila, mahalla, maktab hamkorligida samarali ish tashkil etish;
- tarbiyasi og'ir bolalar va huquqbuzarlikka moyil bo'lgan, nosog'lom oilalarning bolalari bilan tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish;
- bolalarning va ota-onalarning tashabbuskorligi, ijodkorligiga tayangan holda turli xil tadbirlar tashkil etish, o'yinlar, ko'rgazmalar, an'anaviy bayramlar, sayohatlar uyushtirish, sport musobaqalari, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar, do'stlik festivallari bolalar aksiyalarini o'tkazish;
- bolalarning qiziqishiga qarab turli to'garaklarga jalb qilish, o'quvchilarning yozgi ta'tilini tashkil qilish, oromgohlarda ishlash, bolalarni huquqlarini himoya qilish;
- ish faoliyatida tuman, shahar, viloyat «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati va xalq ta'limining mas'ul idoralari tomonidan

24

- ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan iqtidorli-iste'dodli o'quvchilarga oid ma'lumotlar bankini yaratish va yangilab borish;
- iqtidorli va iste'dodli talabalarni rag'batlantirish. Chet el ta'lim muassasalarida o'qishga tavsiya berish va Pedagogik Kengash qarorini chiqarishda tashabbus ko'rsatish;
- o'quvchilarning o'qishdan tashqari shikoyatlar, takliflarga nisbatan tegishli choralar ko'rishda, adolat mezonini va oshkorlikni ta'minlash hamda ta'minlash omillarining oldini olishda faol qatnashish;
- o'quvchi - yoshlarga oid ko'rilayotgan masalalarda yoshlarning iroda - manfaatlarini himoya qilish;
- o'quvchilarning o'quv jarayonidagi davomati, o'quv qo'llanma va darsliklar bilan ta'minlanganligini o'rganish hamda bu boradagi kamchilik va muammolar yuzasidan takliflar kiritish;

UMUMIY O'RTA-TA'LIM MAKTABLARI BOLALAR YETAKCHISI NIZOMI

(Kamolot Yo'Il Markaziy

Kengashining 01-04/344-sonli va Xalq ta'limi vazirligining 177-sonli 2004 yil 27 iyulidagi Qo'shma Qaroriga ko'ra tasdiqlangan)

- tashkiliy bo'lim va «Yetakchi» klubi sardorlari bilan birgalikda qariyalar uchun turli xil bayram kechalari tashkil qiladi;
- xotira-qadrlash kuni munosabati bilan turli tadbirlar uyushtiradi;
- sardorlar Kengashida olib borilayotgan ishlar haqida muntazam hisobot berib boradi.

9. Mehnat bo'limi sardori:

- «Ekosan» klubi bilan hamkorlikda turli xil tadbirlar olib boradi;
- har shanba kunlari hasharlar uyushtirib turadi;
- bolalar bilan mehnat reydlarini tashkil qiladi;
- sardorlar Kengashida olib boriladigan ishlar yuzasidan hisobot berib boradi.

qirg'ich chizig'i

BOLALAR YETAKCHISI KIM?



- Harakatning boshlang'ich tashkiloti yetakchilarini saylashda o'z nomzodlarini ko'rsatish, boshqa nomzodlar yuzasidan fikr bildirish va taklif kiritish;
- -harakatning boshlang'ich tashkilotiga ajratilgan xona, anjom, aloqa vositalari, texnika va pul mablag'laridan to'g'ri foydalanishini nazorat qilib borish;
- -harakatning boshlang'ich tashkiloti faollari ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan ma'naviy - ma'rifiy tadbirlarga jalb etish;
- -o'quv muassasasi faoliyatida o'qishga, mehnatga, jamoat ishlariga bo'lgan salbiy munosabati uchun ma'muriy, jamoatchilik choralarini ko'rish;
- -boshlang'ich tashkilot tizimidagi bo'limlari o'rtasida (turli sohalarda bo'yicha) musabagalar tashkil etish;

17

- boshlang'ich tashkiloti (Keyingi o'rinlarda «boshlang'ich tashkilot» deb yuritiladi) boshlang'ich tashkilotning ta'sis yig'ilishi (Konferensiyasi) bilan ta'sis etiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, qonun hujjatlari, harakat Nizomi, Dasturi va ushbu Nizom asosida faoliyat yuritadi.
- 1.3. Boshlang'ich tashkilot yuridik shaxs maqomiga ega emas.
- 1.4. Boshlang'ich tashkilot faoliyatining asosiy maqsadi - Nizom va Dasturdan kelib chiqib, yoshlar manfaatini himoya qilish, ularga har tomonlama yordam ko'rsatish.
- 1.5. Boshlang'ich tashkilot uchun vazirlik va harakatning yuqori organlari (Markaziy Kengash, viloyat bo'limi, tuman bo'limi) qarorlari talablarini bajarish, mazkur Nizom talablariga amal qilish majburiydir. Nizom talablarining rioya etilishiga boshlang'ich tashkilot yetakchisi mas'uldir.

14

"Tong yulduzi" 2004 yil



qirg'ich chizig'i

- -umumta'lim maktabi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalari muhokamalarida faol ishtirok etish;
- - «Kamolot» Yoshlar Jijimoiy Harakati bilan bog'liq bo'lgan masalalarni maktab Pedagogika kengashi muhokamasiga kiritish;
- -o'z xizmat doirasida ota-onalar, mahalla, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;
- -rejalashtirilgan ishlarni maktab ma'muriyati bilan kelishilgan holda amalga oshirish;
- -o'quvchi yoshlarni tarbiyalashda «Oila, mahalla, maktab hamkorligi» Konsepsiyasini amalga oshirishda g'atnashishi;
- -bolalar jurnallari va gazeta sahifalarida boshlang'ich tashkilot va o'z ish faoliyatini yorituvchi maqolalar bilan ishtirok etish;
- -maktab faoliyatining muhim masalalari muhokamasida va qarorlar qabul qilishda

9

- -ta'lim muassasalarining rejalarini tuzishda, boshqaruv qaror va buyruqlarni chiqarishda tashabbus ko'rsatish, o'z taklif va mulohazalari bilan g'atnashishi;
- -harakat faoliyatida faol ishtirok etmayotgan, talabga javob bermagan, hujji yomon o'quvchilarga nisbatan chora ko'rish va harakat safidan chiqarish;
- -«Kamolot» Yoshlar Jijimoiy Harakati Dasturi va Nizomida belgilangan maqsad va vazifalarni hayotga tadbir etish bilan bog'liq masalalarni hamda boshlang'ich tashkilot yetakchilari tegishli ravishda ta'lim muassasasi Pedagogik Kengashi tarkibida yoshlar faoliyatiga oid masalalarni muhokama qilish;
- -o'quv jarayonida boshlang'ich tashkilotning yetakchilari sinov va imtihonlarning xolisona o'tkazilishini yoshlar manfaatlarini himoya qilgan holda nazorat qilish;
- -ta'lim muassasalariga tushgan

22

- singdirishning ilg'or ish uslublarini tadbir etish;
- -yoshlarimiz ongiga Vatanga, buyuk ajdodlarimiz merosi va xalqimizning bugungi bunyodkorlik ishlariga yuksak ehtirom tuyg'ularini singdirib borish;
- -qadimiy tarixiy yodgorliklar va mustaqillik davrida bunyod etilgan ma'rifat maskanlariga, tabiat bag'riga sayohatlar, muzey va ko'rgazmalarga ekskursiyalar tashkil etish;
- -dimiy ekstrimiz va qoidaparastlikning har qanday shakllarining reaksiyon mohiyatini keng tushuntirish, uning yoshlarga ta'sirining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda hayotga tadbir qilish;
- -mamlakatimizda nishonlanadigan umumxalq bayramlarining tarbiyaviy jihattan yuqori saviyada o'tishini ta'minlash;

9

- 4.2. Boshlang'ich tashkilot Respublikamizning amaldagi qonunchiligi hamda o'z Dasturi va Nizomi asosida faoliyatini yuritadi.
- «Kamalot» bolalar tashkilotining sardorlar Kengashi a'zolari tuzimi:
Izoh: har bir sinf (2-7 sinflarda), maktab, tuman (shaharda) huddi shunday sardorlar Kengashi tizimi bo'lishi lozim.
- **Sardorlar Kengashi a'zolari o'rtasida ISH TAQSIMOTI**
- 1. Sardorlar Kengashi raisi:
- «Kamalot» bolalar tashkiloti ishini nazorat qiladi, muvofiqlashtiradi va ish rejalarini tuzadi;
- - tashkilotda olib borilayotgan ishlar va uning ahvoli haqida muntazam ravishda viloyat Sardorlar Kengashi oldida shaxsan javob beradi;

52

ishlar haqida muntazam hisobot berib boradi.

6. «Ekosan» klubi sardori:

- muntazam ravishda hasharlar o'tkazib boradi;
- «Eng yaxshi ko'kalamzorlashtirilgan bog'» mavzusida turli tanlovlar o'tkazadi;
- ekibanalar ko'rik-tanlovi uyushtiradi;
- sardorlar Kengashida olib borilayotgan ishlar haqida muntazam hisobot berib boradi.

7. «Yetakchi» klubi sardori:

- otaliqqa olingan sinflarda turli bayramlar uyushtirish;
- profrentasiya ishlarini olib boradi;
- sardorlar Kengashida olib borilayotgan ishlar haqida muntazam hisobot beradi.

8. «Mehr-shafqat» klubi sardori:

- xonadonlarda istiqomat qilayotgan qariyalar to'yxatini tuzadi;

29

Umumiy o'rta-ta'lim maktablarining bolalar yetakchisi to'g'risidagi

NIZOMI

1. Umumiy qoidalar

Bolalar yetakchisi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, jumladan, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», yoshlarga oid Prezident Farmonlari, Xalq Ta'limi boshqarmasi, «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakatining me'yoriy hujjatlari asosida o'z ish faoliyatini mazmunini belgilab, milliy an'analar, gadiyatlarni hisobga olgan holda faoliyat yuritadi. Bolalar yetakchisi faoliyatining maqsadi - yangilikka intilish, tashabbuskorlik orqali o'z hududidagi bolalarni bita ahil, do'st jamoaga birlashtira olishdir. U bolalar orasida o'zini mohir pedagog, ijodkor, turli

2

qirqish chizig'i

2. Bolalar yetakchisining asosiy vazifalari

Bolalar yetakchisi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qonunlari, xalq ta'limi boshqarmasining me'yoriy hujjatlari, «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati, «Kamalak» bolalar tashkiloti faoliyat yo'nalishtirish asosida ish mazmunini belgilab, bolalar va o'quvchilarning yoshlaridan kelib chiqib, ularning talablari va qiziqishlariga ko'ra, milliy an'analar, gadiyatlarni hisobga olgan holda ish olib boradi. O'quvchilarni milliy istiqol g'oyalari ruhida tarbiyalash bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshiradi: -ta'lim muassasalari rahbarlari bilan hamkorlikda o'quvchilarning yoshiga mos ravishda milliy istiqol mafkurasini

5

hamkor tashkilotlar, maktab ma'muriyatlari o'rtasida doimiy aloqani yo'lga qo'yadi;

-sardorlar Kengashi faollar bilan ishni yo'lga qo'yishni tashkillashtiradi, yuzaga kelgan muammolarni yechimini topadi va olib borilayotgan ishlarni xulosa qiladi;

-sardorlar Kengashi a'zolariga shaxsan javob beradi.

2. Yurist-konsult:

-sardorlar Kengashining joriy va perspektiv ish rejalarini muvofiqlashtiradi;

-sardorlar Kengashi yig'ilishini tashkillashtiradi;

-sardorlar Kengashi qarorlarini bajarilishini nazorat qiladi;

-sardorlar Kengashi a'zolari olib borayotgan hujjatlarni nazorat qiladi va tartibga soladi;

-sardorlar Kengashi olib borayotgan

26

81

-o'quvchilarning o'quv jarayonidagi davomati, o'quv qo'llanma va darsliklar chiqish;

131

umumiy O'rta ta'lim maktablaridagi

1.2. O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati

Respublikasi

chiqilgan.

va Nizomi hamda Reglament) asosida ishlab

«Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati Dastur

hujjatlari (O'zbekiston Respublikasi

1.1 Mazkur Nizom harakatning ta'lim

1. Umumiy qoidalar

YO'RIQNOMA

to'g'risidagi

tuzilmalaridagi vakolat va vazifalari

yetakchilarning ta'lim muassasasi ichki

boshlang'ich tashkilotlari hamda

«Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati

Umumiy o'rta-ta'lim maktablaridagi

01

ehuyojiga ishlatilishini nazorat qiladi.

mablag'larni belgilangan tartibda maktab

buyumlar savdosini tashkil etish va tushgan

maktab ma'muriyati bilan kelishib,

to'garaklarda tayyorlangan mahsulotlarni

-maktab qoshida tashkil etilgan turli xil

almashish;

o'rnatish hamda ular bilan ish tajribalari

tashkilotlari bilan do'stlik aloqalari

tashqari faoliyat ko'rsatayotgan bolalar

-respublikamizda va respublikamizdan

kurslarida o'z bilimlarini oshirib borish;

organlariga saylash va saylanish;

-malaka oshirish va qayta tayyorlov

o'z huquqlari doirasida qatnashish;

12

Boshlang'ich tashkilotning huquqlari:

va ularning ekalogik harakatini rivojlantirish;

-yoshlarning ekalogik bilimlarini oshirish

-iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash;

olishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish;

o'rtasidagi g'yohvandlik, OITSni oldini

huquqbuzarlikni oldini olish, yoshlar

-vovaga yetmagan yoshlar o'rtasidagi

yaratish);

jumladan, oddiy sport maydonchalarini

jismoniy tarbiya ishlarini tashkil etish (shu

vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, sport va

-yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash,

oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash;

tegishli ishlarni amalga oshirish;

o'z huquqlarini muvofiqlashtiradi;

borasida maktab rahbariyatiga taklif va

ularning iqtidorini oshirishga sharoit yaratish

3. Boshlang'ich tashkilotning vazifalari va huquqlari

3.1. Boshlang'ich tashkilotning vazifalari:

-o'quvchilarning madaniy dam olishi, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishi, maktab binosidagi ovqatlanish sharoitlari bilan bog'liq muammo va kamchiliklarni o'rganish va bular yuzasidan ta'lim muassasasi rahbariyatiga takliflar kiritish;

-pedagogik Kengash yig'ilishlarida qatnashish hamda «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati Dasturi va Nizomida belgilangan maqsad va vazifalarini hayotga tabdiq etish hamda o'quvchilar manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq masalalarni Pedagogik Kengash muhokamasiga olib chiqish;

4. Tashkiliy bo'lim sardori:

- sardorlar Kengashi raisi bilan birgalikda turli bayram, ko'rik-tanlovlar, viktorinalar, musobaqalar, shoular o'tkaziladi;
- tashkilotdagi barcha tadbirlarni yuqori saviyada o'tishini ta'minlaydi;
- sardorlar Kengashida olib borilayotgan ishlar haqida muntazam hisobot berib boradi.

5. O'quv bo'limi sardori:

- o'quv reydlarni tashkillashtirish;
- sardorlar Kengashi raisi bilan birgalikda turli xil bayramlar, ko'rik-tanlovlar, viktorinalar, musobaqalar, shoular senariyalarini tuzadi va tashkiliy bo'lim sardori bilan birgalikda tadbirlarni uyushtiradi;
- monitoring ishlarini olib boradi;
- maktab o'quvchilari kundaligini nazorat qiladi;
- sardorlar Kengashida olib borilayotgan

28

tadbirlar tashkilotchisi sifatida namoyish etish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Bolalar yetakchisi - «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakatining maktabdagi tashkilotchisi va yetakchisi sifatida maktabdan va sinfdan tashqari ma'naviy - ma'rifiy, ta'lim - tarbiyaviy ishlarni olib boradi.

O'quvchilarning bosh vaqtlarining mazmunli tashkil etish bo'yicha umumta'lim maktablari va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining faoliyatlarini muvofiqlashtiradi.

Bolalar yetakchisi pedagogik jamoa, faol o'quvchilar, jamoatchilik bilan birga o'quvchilarda milliy istiqlol g'oyalari, Vatanga va xalqqa muhabbat, sadoqat hissini tarbiyalaydi, yuksak ahloqiy fazilatlarini tarkib toptiradi, ularning bilimiga bo'lgan qiziqishini doimo rivojlantirib boradi, ularda mehnatga muhabbat uyg'otadi.

3

Bolalar yetakchisi mahalla, ota - onalar, maktab o'qituvchilari, sinf rahbarlari, ma'naviy - ma'rifiy tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, maktab direktori, «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati va boshqa davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi.

Bolalar yetakchisi lavozimiga oliy yoki o'rta maxsus pedagogik ma'lumotga ega bo'lgan, bolalar bilan ish olib borishga layoqatli pedagoglar tayinlanadi.

Bolalar yetakchisi lavozimida ishlash uchun qabul qilinadigan pedagoglar tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi va «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati bilan kelishib tayinlanadi.

Bolalar yetakchisi amaldagi mehnat qonunchiligiga binoan mehnat shartnomasi asosida ishga qabul kilinadi.

4

ishlar haqida muntazam hisobot berib turadi.

3. Matbuot sardori:

- «Kamalak» bolalar tashkiloti burchagiga shaxsan javob beradi;
- «Kamalak» bolalar tashkiloti burchagini muntazam ravishda boyitib borishiga javob beradi;
- sardorlar Kengashi olib borilayotgan ishlarni muntazam ravishda OAV orqali yoritib borilishini ta'minlaydi;
- doimiy ravishda turli rasmlar ko'rgazmasini, devoriy gazetalarni tanlovini uyushtiradi;
- tashkilot tomonidan o'tkaziladigan har bir ko'rik-tanlovlar, bayram va kechalarda tadbirlar zalimi jihozlaydi;
- sardorlar Kengashida olib borilayotgan ishlar haqida muntazam hisobot berib boradi.

42

gathashadi.

Bolalarning va ota - onalarning tashabbuskorligi, ijodkorligi, mohirrigiga tayangan holda turli xil tadbirlar tashkil etadi, o'yinlar, ko'rgazmalar, olimpiadalar, an'anaviy bayramlar, sayohatlar uyushtiradi.

-o'quvchilar bilan o'zaro do'stona munosabat o'rnatadi. Ularni o'z yurtiga sadoqat ruhida tarbiyalash chora-tadbirlarini ko'radi;

-bolalar va o'smirlar o'z-o'zini boshqarish tuzilmalarining ishlarini rejalashtirish, ularning bajarilishini ta'minlash orqali o'quvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi faolligini amalga oshiradi.

Xalq ta'lim boshqarmasi va «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati Toshkent viloyati bo'limi Kengashining 2004 yil 30-avgustdagi 6; 05-01/3-sonli qo'shma qaroriga 2 ilova

12

4. Bolalar yetakchisining faoliyatini tashkil etish

Pedagogika mahoratini egallab olishga, yangilikka intilish bolalar yetakchisining xarakterli hususiyati bo'lishi kerak.

Shuningdek:

- bolalar yetakchisi sinf rahbarlari, maktab o'qituvchilari bilan mustahkam aloqa o'rnatadi, pedagoglarni bolalar tashkilotlari ishining mazmuni, shakli va uslublari bilan tanishtiradi;
- bolalar yetakchisi o'z ishini reja asosida olib boradi va uning bajarilishini nazoratini ta'minlaydi;
- maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda maktabning umumiy rejasi, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, bolalar tashkiloti, ota-onalarning ish rejalarini e'tiborga olgan holda ta'lim-tarbiyaviy tizimda faol

11

yoshlar bilan har xil mavzularda davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil etish;

-jismaniy, ma'naviy sog'lom avlodni va ijtimoiy shaxsni shakllantirishga hissa qo'shish;

-tashkilot a'zolarini Respublikamizda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarini urf - odatlari, an'analari, marosimlari, madaniyati va san'ati hurmat qilishga o'rgatish yuzasidan turli mavzularda amaliy tadbirlar o'tkazish;

-milliy g'urur, milliy mafkuraviy onglik, milliy odob, fidoyilik fazilatlarini shakllantirish chora - tadbirlarini belgilash;

«Xizmat-beminar», «Mehr - shavqat» guruhlari tashkil etish orqali mehnatsevarlik, rostgo'ylik, mehribonlik va insoniylik fazilatlarini shakllantirishga ko'maklashish;

-sog'lom turnush tarzida tarbiyalash, jamoa orasida o'z fikrini to'la ifodalashga o'rgatish, iqtidorli bolalarni izlab topish.

20

Zilola ESONOVA - Toshkent shahar, Sirg'ali tumanidagi 322 - maktabning 4 - sinfida o'qiydi. Maktabga barvaqtroq chiqqanidanmi, sinfdosh dugonalari orasida ancha yosh ko'rinadi. Ammo, ko'zlari hamisha kulib turadigan, isticarasi issiqqina bu qizaloq bilan yaqinroq tanishib, biroz suhbatlashsangiz, gap yoshda emas, boshda, degan naqlning nechog'li to'g'riligiga amin bo'lasiz.

-Zilolaxon, maktabda nima gaplar?

-Tinchlik, o'qishlarim, ishlarim joyida. Yaxshi ko'rgan ustozim Muqaddas opa Ro'ziyevadan saboq olib yuribmiz.

-Sevimli mashg'ulotingiz nima?

-Ertak kitoblarini o'qishni yaxshi ko'raman. «Yovvoyi g'ozlar», «Bukri malika» nomli ertaklarning mazmunini har kuni singlimga aytib beraverganimdanmi, yod bo'lib ketgan. Yana she'rlar ham yozaman. Ularning birinchi tinglovchisi shoir va jurnalist bobom Sa'dulla Hakim bo'ladilar. Yangi she'r yozsam, bobomlarnikiga borishga ham sabrim chidamay, telefon orqali o'qib beraman.

-Bobongizni juda yaxshi ko'rarkansiz-da...

-Albatta, shunday mehribon, nasihatgo'y boboni

yaxshi ko'rmay bo'ladimi, axir. Qayerga borsalar, meni ham olib yuradilar. Yaqinda ular meni Samarqandga olib bordilar. Buyuk ajdodlarimiz qabrlarini ziyorat qildirib keldilar. Bu shahar juda olisda

da...
-O'rtoqlaringiz bilan qo'g'irchoq o'ynashga ham vaqt topasizmi?

-Topaman, dugonalarim O'g'ilo'y, Go'zal, Nozima, Mashhuralar bilan «O'rta» tushar», «Xola-xola» o'yinlarini o'ynaymiz. Natasha ismli qo'g'irchoq'imni esa singlim Fotimaga berib yuborganman.

ZILOLA

ek an.

Uzoq yo'l bossak ham sira zerikmadim. Bobojonimning rivoyatlarini, pand-u nasihatlarini tinglab, qanday yetib borganimizni ham bilmay qolibman.

-Zilolaxon, yana nimalarga qiziqasiz?

-Ingliz va rus tillarini o'rganishga, raqs tushishga.

Maktabimizdagi raqs to'garaginging eng faol qatnashchilaridanman. Rasm chizishni ham yaxshi ko'raman. Faqat chizgan rasmlarimni singlim yirtib tashlayveradi-

-Nega?

-Kap-katta qiz bo'la turib, qo'g'irchoq o'ynab o'tirsam, uyat bo'lar...

-Sir bo'lmasa, ulg'aygach kim bo'lmoqchisiz?

-Xuddi bobomdek shoir va jurnalist bo'laman.

-Ikkisi ham bir kasb emasmi?

-Yo'q, shoirlar she'r, jurnalistlar esa maqola yozishadi. Buni menga bobom yaxshilab tushuntirib

qo'yganlar.

-Yangi she'rlaringizdan eshitaylik.

Marhamat:

OVYONIM VA SUMALAK

Bu yil ellik yoshida.

Bu yil ellik yoshida.

Sumalakka bosh bo'ldi,

Ko'ngil quvonchga to'ldi.

O'tin keltirar kimdir,

Kim o'choqqa qalaydi.

Buvin kavlar qozonni,

Mo'ljal qilib azonni.

ULUG' ONAMNI ESLAB...

Buvinim, mehribonim Ulug'oy,
Bag'ri issiq, yuzlari mehrga boy.
Tinglasangiz, qand-u asal so'zlari,
Yana asal keltiribdi o'zlari.

YOZ

Foz boshlanar dalada, bog'da,
Feru ko'kni qizdirar quyosh.
Hansiraydi qushlar butoqda,
Olam yonar, qizib ketar tosh...

Zilolaxonning bolalarcha hayrat va hayajon bilan bitilgan she'rlarini tinglab, borliqni qanday ko'rsa, shundayligicha aks ettirgan rasmlarini tomosha qilib, uning kelajakda kim bo'lishidan qat'iy nazar, qalbi pok, samimiy inson bo'lib kamol topishiga umid qildik. Chunki, adabiyotga, san'atga, she'riyatga oshno qablarda yomonliklarga o'rin bo'lmaydi.

Nargiza AKBAR qizi suhbatlashdi.



Aziz bolajonlar, ro'zai-ramazon kunlari o'tganlarni yod etish koni savobdir. Keling, biz ham birgalikda

BIZNING MUZAFFAR

Bu insonni siz balki

yulduzi»da ishlagan damlarini eslab, ko'nglim yorishib ketadi. Hammamizdan kichik bo'lgani uchun bizga bosh bo'lsa-da, biror topshiriq berish u yoqda tursin, kamchiligimizni aytishga ham botinolmay turardi. Bir kuni yoshi kattaroq hamkasbimizga tanbeh berayotganiga bexosdan guvoh bo'lib qolganman. «Maqolangizni o'qib chiqdim. Kichkinagina lavhangizda bosh qahramonning nomi oz emas, ko'p emas 19 marta takrorlanibdi. Ustidan yana bir ko'rib bersangiz...»

U shu gaplarini, asosli tanqidlarini har dushanbada bo'ladigan majlisimizda, ko'pchilikning oldida aytsa ham bo'lardi-ku. Boshqalarni bilmadimu, lekin Muzaffarjon bunday qilolmasdi. O'sha insonni ranjitib qo'yishdan cho'chirdi. Chunki u nafaqat odamlarga, hatto chumoliga ham ozor berolmaydigan inson

edi-da...

Yangi yil arafasi edi. Gazetamizni bayramona ruhda chiqarish haqida uzoq bahslashdik. Har kim o'z fikrini aytdi. Lekin hammamizga Muzaffarjonning «BO'G'IRSOQNING SARGUZASHTLARI» haqidagi ertagi ma'qul bo'lgandi. Bolalarga yanada qiziqarli, tushunarli bo'lishi uchun har birimiz yil davomida qilgan ishlarimizni ertak orqali so'zlab, ma'lum ma'noda hisobot bergandik. Gazetani bezatish, maqola va rasmlarni joylashtirish ishlarini ham muharririmizning o'zi bajargandi...

Muzaffarjonning yana bir ajoyib odati bor edi: Doimo kulib, ko'tarinki kayfiyatda yurardi va ana shu kayfiyatni hamsuhbatiga ham «yuqtira olardi». Baland ovoza salomalik, hazil-mutoiba bilan

Hamisha uyg'oq xotira

tahririyatimizga o'zgacha bir ruh bag'ishlab kirib kelardi.

Navqiron yoshdagi hamkasbimiz haqida o'tgan zamonda gapirayotganimizga hayron bo'layotgandirsiz? Buning boisi - u endi jisman oramizda yo'q. Lekin uning porloq xotirasi hamisha yodimizda. Uning qiziq-qiziq gap-so'zlari, hech kimmikiga o'xshamaydigan ajoyibu g'aroyib fikrlari, shirindan-shakar bir o'g'liyu, bir qizi endi bizga MUZAFFARdek bir inson yashab o'tganidan dalolat berib, ko'nglimizga yorug'lik solib turadi. Bilimdonu zukkoligi, qalbi pokligi-yu kamtarligiga tan bergan holda uning bu hislatlari farzandlariga o'tgan bo'lsin, deymiz. Otasi umrining, ishlarining davomchilari bo'lishsin ular!

Feruza JALILOVA.



bir savob ishga qo'l uraylik. Hamkasbimiz, ajoyib inson Muzaffarjon Pirmatovning porloq xotirasini yodga olaylik...

qilingan bo'lib, uning tashabbuskori ham, ijodkori ham Muzaffar akangiz bo'lgandi...

Muzaffarjonning «Tong

YOLG'ONNING MISI CHIQDI

Sinfimizda Nilufar ismli qiz bor. U juda saxiy. Mendan ham, boshqa do'stlaridan ham hech narsasini ayamaydi. Uning bu odatini ko'rib, qizlarimizning barchasi Nilufar juda yaxshi qiz deyishardi. Ammo... Afsus, ayrim kishilarning barcha fazilati birdek y a x s h i bo'lavermas ekan. Ularning uyi bizga yaqin bo'lgani bois, bir kuni ertalab uni maktabga chaqirib, birga ketmoqchi bo'ldim. Nilufar uyidan chiqdi-yu, menga tikilib, biroz o'ylanib qoldi.



-Senga nima bo'ldi, yur tezroq, darslarga kech qolamiz, - shoshirdim uni. U bo'lsa:

- Bilasanmi Dildora, hozirgina sening oying telefon qildilar, zudlik bilan uyingga borar ekansan, - dedi. Hayron bo'lib, yugurganimcha uyimga qaytdim. Eshikdan shoshilib kirganimni ko'rgan oyim:

- Ha qizim, tinchlikmi, buncha hovliqasan, birov quvladimi? - deb hayratomuz boqib turardilar.

- Nega telefon qilib chaqirdingiz, tichlikmi? ularning savollariga savol bilan javob qaytardim.

- Qayerga telefon qilibman, - ajablanib so'radilar oyim. Demak, Nilufar aldabdi-da, bo'shshib ketdim va qo'limdagi sumkamni sekin gilam ustiga qo'ydim.

- Kim aldadi, senga nima bo'ldi qizim? - to'xtovsiz savol berardilar oyijonim.

-Yo'q, o'zim, men maktabga kech qolayapman, - dedimu yugurganimcha uydan chiqib ketdim.


- Hoy, Dildora qizim, to'xtagin, - ularning hay-haylashlariga qaramasdan to'xtovsiz yugurdim.

Maktabga kelsam, hammayoq jim-jit, allaqachon darslar boshlangandi. Ustozimdan uzr so'rab, sekin o'z partamga borib o'tirdim. Yuzlarim, quloqlarim lov-lov yonardi. Iloji boricha atrofga qaramaslikka urinardim. Chunki to'rt tarafdin Nilufarning jilmaygan afti ko'z oldimda gavdalanardi. Shu payt birov orqamdan sekin turti. Qayrilib qarasam, Nilufar:

- Dildora, oying biznikiga telefon qilmagandi, hazillashuvdim, - dedi kulib. Indamadim. Indamasligimning boisi - uning qandayligini bilib olganimda edi. **Dildora ABDUMALIKOVA, o'quvchi.**

Men Yo'l qoidasi - umr foydasi

Toshkentdagi M.S.Tursunxo'jayeva nomli tibbiyot kolleji talabasiman. Shifokor bo'lish mening bolalikdagi orzuim edi. Men intiq kutgan o'sha damlar ham kelib, ushbu bilim yurtiga a'lo natijalar bilan qabul qilindim.



Bizga bilim berayotgan

DUGONAMNI YO'QOTIB QO'YDIM

ustozlarimizning shirinso'zligi, mehribonligini aytсам, havasingiz kelib ketadi.

Kunlar oylarga ulanib, bir zumda kollejimizning 3-bosqich talabasi bo'lib turibmiz. Darslar ancha ko'paygan, bizdan yanada ko'proq o'qish, izlanish talab qilinyapti. Ko'p vaqtimiz kollejimiz kutubxonasida o'tyapti.

Shunday kunlarning birida yonimga qo'shni guruhda tahsil oladigan Shahnoza ismli bir qiz kelib o'tirdi-da, shoshgancha dars qilishga kirishib ketdi. U bilan yaqindan tanishib oldim. Biz ancha suhbatlashdik. Uning muomalasi shunaqayam muloyim ediki...

-Bugun ro'zaning birinchi kuni. Tezroq uyga borib, oyimga yordamlashishim kerak, - dedi u. - Nimagadir bugun oyimni judayam sog'inib ketyapman, - deya qo'shib ham qo'ydi. Biz bekatgacha birga ketdik va quyuq xayrlashdik...

Ertasi kuni yangi orzu umidlari bilan kollejimiz tomon oshiqdim. Shu payt oldimdan yugurgancha Shahnoza o'tib qoldi. «Biroz shoshmay yursa bo'lardi. Katta yo'ldan o'tayotganda mashina urib yuborishi ham mumkin edi-ku. Xudo bir asradi uni», degan xayollar bilan borayotgandim. Bexosdan uning baland ovozda «yo'q...» deya baqirgan ovozini eshitib qoldim. Uni odamlar orasidan axtarib, tramvay bekati tomonga yugurdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, Shahnoza yerda yotar, uning kechagina porlab, chaqnaib turgan ko'zlari ochiq holda qotib qolgandi...

Muxlisa ZOKIROVA.


QULOQSIZ QUYON

Quyuncham bor uzun quloq,
Po'stinchasi qordek oppoq.
Uychasidan chiqib bir kun,
Sabzavotni ebdi butun.

Mehnatiga jig'ibiyron,
Quyunchamdan ko'ngli vayron.
Shalpon qulog'imni koyib,
«Quloqsiz» deb aytdi oyim.



Nigora RAVSHANOVA,
Chirchiq shahar, 2-ixtisoslashtirilgan
maktabning 5-«B» sinf o'quvchisi.




Savollari:

1. Xom-ashyo.
2. Hayron.
3. Sahar, erta.
4. Binafsha.
5. Masofa.
6. Shahar, viloyat...
7. Uzun.
8. Ota (shevada).
9. Raqam.
10. Fasl.
11. Davlat.



Tuzuvchi: **Sanobar KO'CHIMOVA,** Navoiy viloyati, Navoiy shahardagi 11-maktabning 7-sinf o'quvchisi.



TONG yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida
ABDUAZIMOVA.

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
O'ktam OHUNOV,
Ergashvoy. SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida

N: 022 raqam bilan
2003 yil 11 dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi.
Gazeta

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.

Hajmi A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 11167

Buyurtma N: J 716

Dizayn va sahifalovchi:

Otabek
ESHCHANOV.
Navbatchi:
Gulyuz
ARIFJANOVA.

Rassom:

Nodira **MIRZAYEVA.**

Manziligimiz:

700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38
144-38-10
144-21-75

Tel./ faks:
(99871) 144-24-45